



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

## FORMATION AND HISTORICAL STAGES OF THE LEGISLATION ON THE POLICY OF RESETTLING THE POPULATION TO TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY AND THE EARLY 20TH CENTURY

**Sh.V. Temirova**

researcher at Navoi State University  
Navoi, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Order, decision, regulation, technic, K.P. von Kaufman, Chernyaev, Lessar, Palen, statistics.

**Received:** 30.05.25

**Accepted:** 01.06.25

**Published:** 03.06.25

**Abstract:** This article analyzes the empire-wide and local legal-normative documents aimed at the policy of population relocation to Turkestan in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century of the Russian Empire went.

## XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONGA AHOLINI KO'CHIRISH SIYOSATI QONUNCHILIGINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY BOSQICHLARI

**Sh.V.Temirova**

Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi  
Navoiy, O'zbekiston

### МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Farmon, qaror, nizom, texnika, K.P.fon Kaufman, Chernyayev, Lessar, Palen, statistika.

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Turkistonga aholini ko'chirish siyosatiga qaratilgan imperiya miqyosidagi va mahalliy xarakterdagi huquqiyeme'yoriy hujjatlari tahlil qilingan.

## ФОРМИРОВАНИЕ И ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ПО ПОЛИТИКЕ ПЕРЕСЕЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В ТУРКЕСТАН ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX — НАЧАЛЕ XX ВЕКА

**III.B. Темирова**

исследователь Навоийского государственного университета  
Навоий, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Указатель, решение, регулирование, техника, К.П. общимперские и местные нормативно-

фон Кауфман, Черняев, Лессар, Пален, правовые документы, направленные на политику переселения населения в Туркестан во второй половине XIX - начале XX века Российской империи.

---

Rossiya imperiyasi Turkistonga kirib kelishi va bosib olishining dastlabki davrlaridan boshlab imperiya markazi va Turkiston ma'muriyati o'lkani boshqarish bo'yicha nizom, ko'rsatma, qarorlar qabul qila boshlagan edi. Dastlab, 1865-yilda "Yangi Qo'qon yo'li" qo'mondoni general M.G.Chernyayev shtabi tomonidan tayyorlangan, istilo etilgan hududlarning harbiy-ma'muriy tuzilishi to'g'risida dastlabki ishlab chiqilgan hujjat "O'rta Osiyo chegara viloyati to'g'risida"gi Nizom loyihasi deb atalgan. Ta'kidlash joizki, Rossiya imperiyasining bu mintaqaga kirib kelishi, aholini ko'chirish siyosatining dastlabki yillari ko'chirib keltirilgan qozoqlarga, ruslarga eng ko'p qulaylik yaratib berish, ularning sonini ko'paytirish davrigina bo'lmay, balki keyinchalik takomillashtirilgan mustamlakachi ma'muriyatning asosiy harbiy-siyosiy va boshqa tuzilmalarini vujudga keltirishning tashkiliy jihatdan yakunlanish davri ham bo'ldi. O'rnatilgan hokimiyat huquqiy tizimi, aslida Turkistonda yuzaga kelgan vaziyatni aks ettirardi. Rossiya imperiyasi ulkan hududlarni bosib olgan, tub aholiga har qanday zug'um o'tkazish va uning ustidan nazorat qilish uchun qabul qilinadigan qaror va qonunlar kerak edi. Imperiya tomonidan bosib olingan yerlarning kengayishi va hududni boshqarish qiyinlashganligi sababli Turkiston viloyatini shu nomdagi general-gubernatorlikka aylantirib, uni harbiy vazirlikka bo'ysundirish zarur, deb topildi. 1867-yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, mustamlaka etilgan hududda dastlab, Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari tashkil etildi,[1] hamda general-gubernatorlik o'sha paytda Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridan iborat bo'ldi[2]. Tashkil etilgan mazkur viloyatlarda imperiyaning aholi zinch joylashgan g'arbiy va markaziy hududlari aholisi ko'chishini amalga oshirish, hamda joylashtirish maqsad qilindi.

Shuni ham qayd etish joizki, K.P.Kaufman 1867-yil iyulda Turkistonga general - gubernator etib tayinlanishi arafasida "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi boshqaruvi to'g'risida"gi Nizom loyihasini ko'rib chiqish uchun imperatorga taqdim qilgandi. Bu loyihada, asosan, Turkiston o'lkasini boshqarish va ko'chirish masalasi qo'yilgan edi. Lekin bu vaqtida rus qo'shnulari Samarqanddan Buxoro tomon harakat qilayotgani, Krasnovodsk tomonidan esa, Xivaga hujum qilish mo'ljallanayotganligi, shuningdek, metropolianing harbiy rejalariga Qo'qon xonligini bosib olish, tugatish ham kirganligi sababli mazkur loyiha tasdiqlanmagan edi. General-gubernatorga amalda cheklanmagan hokimiyat berilgan, bu esa, unga o'lkani boshqarish, uning tuzilishi bilan bog'liq muammolarni, shu jumladan, aholini ko'chirib keltirish masalalarini ham o'z ixtiyoricha hal etish imkoniyatini berardi. K.P.Kaufman shundan kelib

chiqib, eng avvalo, Sirdaryo viloyatiga ko‘chib kelgan rus aholiga zarur bo‘lib qolganda yer sotib olish ham ruxsat berilishi[3] mumkinligini belgilagan edi. Biroq, shu o`rinda, ruslarni asosan, davlat yerlariga hamda, tub aholidan tortib olingan yerlarga joylashtirish ko‘zda tutilgandini qayd etish lozim. K.P.Kaufman mintaqadagi vaziyatni tartibga solish uchun bosib olingan hududlardan tashqari, yarim mustamlaka hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligini boshqarish bo‘yicha ham imperiya ma’muriyati va general-gubernatorlik ko‘plab qonun, qaror, farmon va farmoyishlar qabul qilgan. Jumladan, Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy bilan maslahatlashgan holda, Buxoro amiri bilan keyingi munosabatlarni tartibga soluvchi traktat tayyorlash masalasini kun tartibiga qo‘yadi hamda dastlab 10 ta moddadon iborat traktat tayyorlaydi. Biroq K.P.Kaufman talabi bilan yana qo‘srimcha ikki modda kiritilgan. Ushbu moddalarda rus savdogarlarini barcha amirlik shaharlarida erkin harakatlanishini ta’minlash va bundan keyin ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar faqatgina Turkiston general-gubernatori orqali amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan edi.

Shu o`rinda aytish kerakki, Turkiston general-gubernatorining (1867-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan davrda bu lavozimni imperator tomonidan tayinlangan 12 kishi egallagan, 3 kishi general-gubernator vazifasini vaqtincha bajaruvchi bo‘lgan) qarorlari farmoyishlari va buyruqlarida vaqt-vaqt bilan mustamlakachi ma’muriyatning ko‘chiruvchilik masalalariga doir o‘zgartirishlar kiritilgan. Biroq, mohiyati saqlanib qolgan pozitsiyasi to‘g‘risida ishonarli dalillar anchagini. Imperiya vazirliklari, idoralari, mustamlaka ma’muriyati amaldorlarining, shuningdek, 1867-1917-yillar voqealari ishtirokchilarining xotiralari, shuningdek, bu davrda e’lon qilingan asarlar, mazmunan boy manbalarning birlamchi guruhini tashkil qiladi. Ko‘chirish masalalari bo‘yicha e’lon qilingan ishlar (Vasilchikov, Vitte, Gavrilov, Voshinin, Geyer, Isayev, A.Kaufman, Krivoshin), mustamlaka davridagi Rossiya va Turkiston matbuoti materiallari ham tanlangan mavzuni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, Turkiston o‘lkasini 1867-yildan 1882-yilgacha boshqargan K.P.Kaufman faoliyati birmuncha ziddiyatli va munozaralidir. Rossiya imperiyasi Turkistondagi mustamlaka ma’muriy boshqaruva tashkilotlarini ham tashkil etishga alohida e’tibor bergen. Bu to‘g‘risida O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Turkiston o‘lkasida moliya-xo‘jalik idoralarining ochilishi to‘g‘risidagi ma’lumotni keltirish mumkin[4]:

1867-yil 4-iyuldagagi Rossiya imperiyasi Ministrler Sovetida quyidagilar tasdiqlandi[5]:

- 1.Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish.
- 2.Bo‘lajak general-gubernator ixtiyoriga shu paytgacha o‘lka boshqaruvida faoliyat ko‘rsatgan xodimlar masalasini hal qilish.

3.Turkiston general-gubernatori o‘lkani siyosiy-iqtisodiy va mahalliy shart-sharoitlarini o‘rganib, o‘zi ma’qul deb topganlarini o‘lka boshqaruvida amalga oshirishi.

4.Davlat g‘aznasidan general-gubernatorga o‘lkani boshqarish va xodimlarni moddiy ta’minalash uchun mablag‘ ajratish: a) ajratilayotgan mablag‘ belgilangan me’yordan oshmasligi va b) yuqorida ajratilayotgan mablag‘lar – Harbiy va Moliya vazirlarining o‘zaro roziligi asosida taqdim etish[6].

Turkiston general-governatorligi tashkil etilishi bilan “Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom loyihasi qabul qilinib, unda general-governatorlik mahkamasining o‘lka boshqaruvi bo‘yicha vazifalari belgilab berilgan. Mahkamaning birinchi boshqaruvchisi general mayor Aleksandr Konstantinovich Geys 1868-yil 9-yanvarda "Mahkamaning ishlab chiqarish bo‘yicha ishlarini taqsimlash to‘g‘risida (mahkama tuzilishining tasdiqlangan loyihasi)" ma’ruza qiladi[7]. Bu ma’ruza general-governatorlik mahkamasi arxivining VII ma’muriy bo‘limida 18-raqami bilan qayd etilgan. Hujjatlarning tuzilishi va xususiyatlari bo‘yicha mahkama boshqaruvchisi A.K.Geys shaxsan general-governatorga hisobot beradi. K.P.Kaufman o‘sha kuni "Tasdiqlayman" degan rezolyutsiya qo‘ydi.

A.K.Geys to‘rtta bo‘lim tashkil qilishni taklif qiladi:

- 1)taqsimlovchi;
- 2) xo‘jalik-statistik;
- 3)maxsus;
- 4) buxgalteriya bo‘limlari va har bir bo‘lim ishlari bo‘yicha batafsил tavsif beradi.

1-taqsimlovchi bo‘lim bo‘yicha quyidagilar belgilandi: 1) "harbiy-xalq boshqarmasi" bo‘yicha amaldorlarni ishga tayinlash va ishdan bo‘shtish, mehnat ta’tili belgilash, formulalar xizmatlar, hamda ularning ro‘yxatlarini yuritish, ish joyini o‘zgartirish, mukofotga tavsiya qilish, nafaqa va pensiyalarni tayinlash, ma’muriy jazo, chet tilli aholi va mahalliy aholiga mansub amaldorlarni xizmatdagi jinoyati, hamda nojo‘ya xatti-harakati uchun sudga berish; 2) ma’muriy bo‘laklarga ajratish va ikkita viloyat tashkil etish; 3) hukumat arxiv materiallari tahlili mahkama faoliyati turli shaklda bo‘lganligidan va qilingan ishlarning ma’lumot xarakteriga ega ekanligidan dalolat beradi. Turli yillardagi Turkiston o‘lkasini boshqarish bo‘yicha "Nizom" mahkamaning faoliyati shakli to‘g‘risida yetarli ma’lumot bera olmaydi. "Nizom" loyihasiga qo‘shilgan materiallar, ayniqsa, 1865-yilgi “Turkiston viloyatini boshqarishga oid Nizom” loyihasiga tegishli materiallar bu masalaga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, mahkama ish yuritish hujjatlarining manbashunoslik tadqiqotiga tashqi belgilaridan kelib chiqqan holda o‘rganish va tarixiy tadqiqotlarda bu manbalardan foydalanish o‘rtasida aniq farq namoyon bo‘ladi. Birinchi qism, avvalo, arxiv ishi doirasida maxsus fan

siyosatida ko‘zga tashlanadi. Unda mahkama ish yuritish materiallari mazmun jihatidan tahlil etilmaydi. Yozma manbalar Turkiston general-gubernatorligi mahkamasining ish yuritish faoliyati Rossiya imperiyasi qonunlari assosida tartibga solinganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi davlat tashkilotlari uchun qabul qilingan qonun hujjatlariga bo‘ysungan edi. 1869-yili mart oyida general K.P.fon Kaufmanning general G.A.Kolpakovskiy tomonidan taqdim etilgan “Krestyan xo‘jaliklarning tuzilishi haqida”gi Nizom[8]ida ko‘chib kelganlar uchun beriladigan yer miqdori me’yorlari, undan foydalanish tartibi ularga ajratiladigan moddiy yordamlar, shuningdek, qozoqlarni joylashtirish masalasida ko‘rsatilgan edi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, imperiyaning dastlabki ko‘chirish davrlarida qozoqlarni Turkiston o‘lkasiga ko‘chirish iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etar edi. Lekin, keyinchalik bu millat aholisining agrar sohadan mutlaqo uzoqligi, o‘zboshimchaligi, qonunga bo‘ysunmasligi, mahalliy aholiga tazyiqi va eng asosiysi ular dastlabki davrdagi o‘z “vazifa”si (bosib olish va hududlarni qo‘riqlash)ni bajarib bo‘lganligi va ularga katta ehtiyoj yo‘qligi uchun Kaufman davriga kelib, ular huquqlari cheklanganligini ko‘rish mumkin. Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chib kelgan aholining bandligi ularga davlat tomonidan ajratilgan ijtimoiy ta’midotga, ya’ni yer va mablag‘larga bog‘liq edi. Bundan tashqari, o‘lkada aholining asosiy qatlami mashg‘uloti yer bilan, dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli yerga ishlov berishning o‘ziga xos qiyinchiliklarini yengib o‘tish hayotiy zaruriyat hisoblanar edi. Eng muhimi, sun’iy sug‘orish usullarini yaxshi o‘zlashtirib, uni amaliyotda qo‘llash ko‘chib kelgan aholi uchun bir muncha mashaqqatli jarayonlarni bosib o‘tish kerakligini ko‘rsatdi. Bu jarayonlarning ijobjiy natijasi sifatida ko‘chib kelgan aholi o‘z xo‘jaliklarini tiklab olish, oilalariga qo‘srimcha daromad keltirish va o‘z navbatida, hukumatning ko‘chirish siyosati negizida iqtisodiy jihatdan mustahkam rus xo‘jaliklarini shakllantirish nazarda tutilgan edi. Iqtisodiy baquvvat xo‘jaliklar imperiya hukumatining Turkiston o‘lkasidagi iqtisodiy va siyosiy tayanchi bo‘lib xizmat qilishi kerak edi.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. К.П. фонь-Кауфман “Проектъ всеподданейшего отчёта....”.-СПб.,:Военная типография,1885.-С.149-150.
2. Проект положение об управлении в Семиреченской и Сырдарыинской областях.- СПб. 1867 -С.66.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-1 jamg‘arma, 15-ro‘yxat, 655 yig‘ma jild. 12-varaq.
4. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 16-ro‘yxat, 13-yig‘ma jild, 120-varaq
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-1-fond, 18-ro‘yxat, 438 yig‘ma jild. 16-varaq

6. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 16-ro‘yxat, 13-yig‘ma jild, 210-varaq.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-1fond, 20-ro‘yxat, 458 yig‘ma jild. 1-varaq
8. Джамгерчинов Б. Д. О прогрессивном значении вхождения Киргизии в состав России. – Фрунзе, 1963. – С. 37.